



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LISONIY BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Burxanova Mashxuraxon Muhammad qizi

FarDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti,

Abduhamidova Maxsudaxon Sohibjon qizi

FarDU 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksema, o'zbek va ingliz tillaridagi leksemaning farqli va o'xshash jihatlarini, bu tillardagi leksik-semantik xususiyatlar haqida so'z boradi. O'zbek va ingliz tilshunosligida leksemalar tahlili badiiy materiallar asosida tahlilga tortilgan.

Annotation. This article discusses the lexeme, the similarities and differences of lexemes in Uzbek and English, and their lexical-semantic features. In Uzbek and English linguistics, the analysis of lexemes is carried out based on literary materials.

Аннотация. В данной статье рассматривается лексема, сходства и различия лексем в узбекском и английском языках, а также их лексико-семантические особенности. В узбекской и английской лингвистике анализ лексем проводится на основе художественных материалов.

Kalit so'zlar. Leksema, leksik-semantik xususiyatlar, tillarni taqqoslash, leksik tahlil, morfologik va semantic xususiyatlar.

Keywords. Lexeme, lexical-semantic features, language comparison, lexical analysis, morphological and semantic features.

Ключевые слова. Лексема, лексико-семантические особенности, сравнение языков, лексический анализ, морфологические и семантические особенности.

Til – inson tafakkurining muhim vositasi bo'lib, u orqali inson o'z fikrini ifoda eta oladi, jamiyat bilan muloqot qiladi va ma'naviy merosni avlodlarga yetkazadi. Leksika tilning eng asosiy tarkibiy qismi bo'lib, so'zlar va ularning ma'nolaridan iborat. Leksik ma'no boshqa ma'nolar, masalan, grammatik, stilistik ma'nolarga qaraganda konkret va individualdir. Har bir leksik ma'no muayyan bir so'zga tegishli bo'ladi. O'zi anglatgan narsaga nisbatan olingan leksik ma'no umumlashtirish xususiyatiga egadir. Masalan, eshik so'zi bir vaqtning o'zida ham bino, xona, transport vositalari, sovutkich, javon kabilarga o'rnatilgan moslamani anglatgan [1, 99]. Ingliz tilidagi leksemalar esa sal boshqacharoq bo'ladi. Ular ko'pincha morfologik jihatdan sodda, lekin semantik jihatdan ko'p qirrali bo'ladi. Ingliz tilida bir leksema turli kontekstlarda turlicha ma'no aks etishi mumkin. Masalan, "light " leksemasi "yorug'lik" yoki "yengil" ma'nolarini bildiradi. Ingliz tilida leksemalarning turli frazeologik birikmalardagi ishlatilishi tilning boyligini ko'rsatadi va shu orqali o'zbek tilidan ajralib turadi. Har qanday so'zning ma'nosi bir nechta kichik ma'nolar – semalardan tashkil topadi. Masalan, ayiq so'zi yovvoyi, yirtqich va





boshqa semalardan tashkil topgan. Hayvonni ifodalovchibu soʻz baʼzi hollarda shaxs yoki narsalarga ham ishlatiladi. Agar bu soʻz odamga nisbatan ishlatilsa, uning qoʻpolligi, dagʻalligi nazarda tutilgan boʻladi.[2,100]. Bunday misollarni adabiyotlarda koʻplab uchratish mumkin. Oʻzbek adabiyotida bunday misollar S.Ahmad, G.Gʻulom, Oybek asarlarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Masalan:

*...bizniki boshqacha jang boʻladi. Hamma musulmonlar bab-baravar deb oʻylaysizmi? Musulmonlar oʻrtasida **boʻrilar** yoʻqmi? Mayli kofirmi, musulmonmi, biz **boʻrilarning** jazosini beramiz. Bizning urushimiz ozodlik urushi boʻladi, ota. Biz hamma **boʻrilarni**, hamma qonxoʻrlarni, zolimlarni yanchib tashlaymiz!* (Oybek, “Qutlugʻ qon”, 185-bet).

Bu badiiy matnda yozuvchi leksemalardan foydalanar ekan, kitobxon tasavvurida boʻri leksemasi orqali insonlarning qanchalik tajovuzkor, shavqatsiz, ochkoʻz ekanligini oʻxshatishlar orqali tasvirlab beradi.

Jorj Oruellning “Molxona” asari oʻzining leksik-semantik xususiyatlari, oʻxshatmalari bilan nafaqat ingliz adabiyotida, balki butun dunyoga mashhurdir. Bu asar deyarli boshidan oxirigacha leksik oʻxshatmalardan iborat. Masalan, asarda ot orqali sodda, itoatkor odamlarni, echki orqali shoʻx, beor odamlarni, choʻchqa obrazi orqali nafsiga qul, faqat oʻzini oʻylaydigan – egoist insonlarni tasvirlaydi.

Oʻzbek va ingliz tillari leksemalarining oʻxshashligi shundaki, har ikki tilda leksemalar asosiy leksik birlik sifatida ishlatiladi va maʼno ifodalaydi. Farqi esa, morfologik tuzilishda, koʻplab shakllarning hosil boʻlishida va semantik kontekstlarda seziladi. Oʻzbek tilida koʻproq qoʻshimchalar yordamida morfologik oʻzgarishlar yuz beradi, ingliz tilida esa koʻproq soʻz birikmalari va kontekst orqali maʼno aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek va ingliz tillaridagi leksemalar oʻziga xos leksik-semantik tizimga ega. Leksik-semantik tahliltillarni chuqurroq oʻrganish, tarjima jarayonida maʼno nozikliklarini anglash uchun muhim vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. 1992. 99-bet
2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. 1992. 100-bet.
3. Oybek. Qutlugʻ qon. Toshkent. 1969. 185-bet
4. Jorj Oruell. Molxona.

